

**XOJA MUXAMMAD PORSO VA UNING «FASL AL-XITOB
BI-VASL AL-AHBOB» ASARINING BADIYYATI****Baltabayeva Maxfura Maxmudovna**

Qoraqalpoq davlat universiteti Adabiyotshunoslik
yo'nalishi 2 -kurs magistranti Xorazm
viloyati Gurlan tumani 11-son maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Xoja Muhammad Porso va uning “Fasl al-xitob bi-vasl al-ahbob” asarining badiiyati haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin.

Naqshbandiya maktabi o'z taraqqiyoti davomida islom olamiga mutassavvuf shayxlar bilan birga yetuk olimlarni ham yetishtirib bergan edi. Ana shunday zotlardan biri Xoja Muhammad Porso al-Buxoriydir. Uning ismi sharifidagi «al Buxoriy» qo'shimchasiga asoslanib aytish mumkinki. Porso Buxoroda tug'ilgan. Xoja Muhammad Porso ba'zi asarlarini arab tilida yozganligi uning arab tilini ham chuqur bilganligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda Muhammad Porsoning bizga ma'lum bo'lgan 20 dan ortiq asari mavjud bo'lib, bu asarlarni mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Bahouddin Naqshbandga bagishlab yozilgan asarlar.
2. Tasavvuf va uning tarixiga bagishlab yozilgan asarlar.
3. Fiqh ilmiga bagishlab yozilgan asarlar.
4. Shariat ilmiga bagishlab yozilgan asarlar.
5. Qur'oni Karimga bagishlab yozilgan asarlar.

Xoja Muhammad Porsoning shariat va tariqat masalalariga bag'ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari «Fasl al-xitob bi vasl al-ahbob» («Do'stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitob») nomli asaridir. Katta hajmga ega bo'lgan bu kitob islom



ulamolari orasida qo'llanma sifatida foydalanilgan. Asar bir necha marta toshbosma tilida chop etilgan. O'tmishda shariat, tariqat va fiqhlar to'g'risida qandaydir bir bahs tug'ilib qolsa, albatta «Faslulxitob» ga murojaat qilib, Porsoning fikrini hujjat sifatida keltirganlar va unga suyananlar.

Asar arab va fors tillarida yozilgan bo'lib, tasavvuf bo'yicha qomusiy asar bo'lib hisoblanadi. Ushbu asarda tasavvuf masalalaridan tashqari payg'ambarlar zikri, sahobalar hayoti, "Xojagon" tariqati shayxlarining faoliyatlari, islomdagi e'tiqodda adashgan rofiziyya, xorijiyya, mo'taziliyya va shu kabi oqimlarga raddiyalar, murid odoblari va boshqa ko'plab masalalar o'z yechimini topgan. Mazkur asarning mundarijasi bilan tanishib chiqishning o'zi asarda ko'p masalalar keng qamrab olinganini ko'rsatadi.

Muallif «Fasl al-xitob» asarini yozish jarayonida tasavvuf, fiqh, Qur'on, hadis va aqidaga oid 50 dan ortiq asardan foydalangan bo'lib, u Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali al-Hakim at-Termiziy (vaf. 898), Abu Bakr al-Kalobodiy al Buxoriy (vaf. 990-995), Abu Abdurahmon Muhammad as-Sullamiy (vaf.1021), Abu Ibrohim al-Mustamliy (vaf. 1042), Abul Hasan al Xujviriyy (vaf.1071), Abdulqosim al Qushayriy (1072), Abu Hamid al-G'azzoliy kabi olimlarning asarlaridan keng foydalangan.

Yirik sharqshunos, arab-fors tillari bo'yicha adabiyotchi olim, akademik Alibek Rustamov bu asar haqida fikr bildirar ekanlar, shunday deydilar: «Agar Xoja Muhammad Porsoning «Fasl ul xitob» asari ishlanganda edi, shariat bo'yicha noto'g'ri yo'ldan ketayotgan har xil oqimlarning kirdikorlari fosh bo'lar edi».

Sharofiddin Roqimiyyning «Tarixi tom» nomli asarida esa Xoja Muhammad Porsoning «Fasl al-xitobi»ga shunday ta'rif beriladi:- «Hol shohidi va bu maqol dalili «Fasl ul-xitob» kitobidurki, ul janobi kasur ul-barakot musannifotlaridandir, ki fasllaridan har biri mutafakkirlar uchun tilsim kalitidir. Boblarining har biri o'tkir zehnlilar nazarida yorqin chiroqdek ravshan va munavvardur. Uning sahifalari qoralamasi avliyolar va toliblar ko'ngullari lavhiga ravshanlik baxsh etadi. Satrlarining har biri din millati yo'li soliklari uchun ro'shnolik belgisidir».



O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituta qo'lyozmalar xazinasida «Fasl al-xitob» asarining 16 ta qo'lyozma va 17 ta toshbosma, Buxoro viloyati Ibn Sino nomidagi universal- ilmiy kutubxona hazinasida esa bitta nusxasi saqlanadi. Asar nusxalari chet eldagi davlat kutubxonalari va muzeylarida ham mavjud. Bunga Avstriya, London, Germaniya, Misr Arab respublikasi, Turkiyada saqlanayotgan nusxalarni misol qilish mumkin.

17 asrda yashagan Muhammad Dexdari Xoja Muhammad Porsoning «Fasl al-xitob» asariga sharh yozgan bo'lib, uni Muxammad Pirim ismli shoxga atab yozgan. Asar qo'lyozma shaklida bo'lib, hozirda uning yagona nusxasi O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 10896 inventar razami ostida saqlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda Xoja Muhammad Porsoning «Fasl al-xitob bi vasl alahbob» asarini o'rganish tasavvuf tarixi va uning nazariyasi, e'tiqod va tasavvufda adashgan firqalar haqida ma'lumot beruvchi muhim manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukrulloev, A. «Xoja Muxammad Porsoning ijodi va badiiyati» "O'zbekiston". Toshkent.2015. 45-70
2. Ahmadov, N. «Fasl al-Xitob bi-Vasl al-Ahbob: Xoja Muxammad Porsoning badiiy uslubi» "Fan". Toshkent. 2010. 32-58 betlar
3. Xusainov, M. «O'zbek adabiyotidagi klassik shoirlar». "Shuhrat" .Toshkent 2018. 85-100 betlar.
4. Kamilov, A. «O'rta asrlar Sharq adabiyoti: nazariy va tarixiy jihatlar» "Akademnashr". Samarqand. 2017. 113-125 betlar.
5. Tohir, J. «Xoja Muxammad Porsoning estetik qarashlari»."Yangi avlod" Buxoro. 2020. 50-73 betlar